

DAVLATIMIZ RAHBARI TOMONIDAN BIZ YOSHLARGA BERILAYOTGAN IMKONIYATLAR

Sh.Xoltoyeva

*O'zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti
Estrada cholg'u ijrochiligi yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

Bizning O'zbekistonimiz - yoshlar mamlakati. Bizning mamlakatimizda yoshlarni o'qib, bilim olishi uchun barcha shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratilib kelinmoqda. Men ushbu mamlakatda tug'ilib, voyaga yetib, ayni damda yangi tashkil etilgan O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institutida tahsil olayotganimdan juda ham baxtiyorman. Men ushbu institutning "Estrada cholg'u ijrochiligi" yo'nalishi 4-bosqich talabasiman va Yoshlar Ittifoqi boshlang'ich tashkilot yetakchisi ya'ni Yoshlar masalalari bo'yicha rektor maslahatchisiman. Men 2022-yilning avgust oyida maxsus komissiya a'zolari bilan suhbatdan o'tgach o'z ish faoliyatimni boshladim va menga berilayotgan ishonch, cheksiz imkoniyatlardan juda xursandman. Men o'z ishimni juda yaxshi ko'raman. Buning uchun avvalo davlatimiz rahbariga, Yoshlar ittifoqi tashkilotiga, institutimga o'z minnatdorchiligimni bildiraman. O'tgan kunlarning birida biz uchun quvonchli bo'lgan yangilik e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi bilan birgalikda "O'zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta'lim muassasalaridagi boshlang'ich tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorni imzoladi. Ushbu qaror yoshlarimiz uchun biz uchun imkoniyatlar kaliti desam mubolag'a bo'lmaydi. Yangi kiritilgan bandlarga ko'ra:

O'zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta'lim muassasasidagi boshlang'ich tashkiloti Yoshlar Kengashi a'zolari hamda fakultet koordinatorlarini ularning ta'lim olish shakli va o'zlashtirish ko'rsatkichidan qat'iy nazar oliy ta'lim muassasasining budjetdan tashqari mablag'lar hamda talabalarni rag'batlantirish jamg'armasi hisobidan Ittifoqning oliy ta'lim muassasasidagi boshlang'ich tashkiloti Yoshlar yetakchisining tavsiyasiga asosan oliy ta'lim muassasasi rektorining tegishli buyrug'i bilan har oyda bazaviy stipendiyaning uch baravar miqdoriga teng bo'lgan qo'shimcha moddiy rag'batlantirib borish;

yoshlarimiz uchun prezidentimiz farmoni va hukumat qaroriga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarining bakalavr bosqichiga kirish uchun davlat granti va to'lov shartnoma asosida qabul kvotalarining ko'paytirilayotgani, magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlari qaytarish shartisiz qoplab berilayotganligini alohida qayd etib o'tish lozim.

Barchamizga ma'lum, 2023-yilning 30-aprelida Yangilanayotgan Konstitutsiya uchun Referendum bo'lib o'tdi. Bunda Konstitutsiyamizga yoshlar huquqlari to'g'risida ham bir qancha o'zgartirishlar kiritildi:

• Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi;

• Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratadi;

• Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi;

• Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi;

• Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatidan to'laqonli ruvojanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir;

• Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar;

• Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi;

• Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir;

• Fuqarolar davlat ta'lim uchun tashkilotlarida tanlovda asosida davlat hisobidan oily ma'lumot olishga haqli.

Shu paytgacha institut, universitetlarga kirish imtixon sinovlari yoshlar va ularning ota-onalar uchun ham doim kuchli stress bo'lib kelgan. Abituriyentlarning bilimi yaxshi bo'lishi mumkin, ammo bitta o'ringa o'n-o'n besh kishi bo'lganidan keyin zo'ridanda-zo'ri o'qishga kirar edi. Qolganlari bo'lsa o'qish menga emas ekan deb yigitlar Rossiyaga ishga jo'nardi, qizlarni esa ota-onalari uzatib yuborar edi. Byudjet o'rinlari ham kam bo'lgan, hozir esa iloji boricha ko'proq yoshlar oliy ma'lumotli bo'lishi uchun bor imkoniyatlarini ishga solib, institut va universitetlarni ko'paytiradi va byudjet o'rinlarining sonini oshiradi. Qolaversa, oliy ta'lim muassasalariga o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish hamda o'qitishda erkinlik beradi.¹⁸

O'zbekistonda yillar davomida yoshlar masalasiga katta e'tibor berilgan, chunki yoshlar davlatda ko'p, xalqning yarmini tashkil qiladi. Davlatning yaxshi rivojlanishi yoshlarga bog'liq bo'lganligi uchun ularga barcha shart-sharoitlar yaratib berishni, huquqlarini himoya qilishni, ularning jamiyat va davlat ishlarida ishtirok etishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha o'ziga majburiyatlar olmoqda.

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - 51-moddasi.

Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi.

Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.¹⁹

Insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas.

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas.

Hech kimda uning rozilgisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas.²⁰

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev yoshlarimizga shunday deganlar: "Sizlar ko'p kitob o'qigan, bilimli avlod sifatida yurtimiz o'tmishida jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini yaxshi bilasiz. Siz Xorazmiylar, Farg'oniyalar, Beruniy va Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy va Boburlar, Buxoriylar, Termiziylar avlodisiz. Ana shunday buyuk vatandoshlarimiz yaratgan bebaho bilim va kashfiyotlar bugun ham butun insoniyatga xizmat qilmoqda."

Barchamizga ma'lum, 2023-yilning 9-iyulida muddatdan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi. Saylov natijalariga ko'ra 87,05 % ovoz bilan amaldagi davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev g'alaba qozondi. 14-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining o'z lavozimiga kirishishga bag'ishlangan tantanali marosim o'tkazildi va Shavkat Mirziyoyevga Prezidentlik Oliy nishoni va bayrog'i topshirildi. Bunda Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston yoshlariga quyidagi murojaat qildi: "Sizlar O'zbekiston tarixiga oltin harflar bilan yoziladigan buyuk ishlarni amalga oshirishga qodirsiz. Yoshlik - g'animat, vaqt - g'animat, ufrsat borida otni qamchilang. Dunyoga o'z so'zingizni ayting. Izlanish va intilishdan also to'xtamang. Baxt va omad doimo sizlarga yor bo'lsin!"²¹

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Internet sahifalari.

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - 79-moddasi.

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - 26-moddasi.

²¹ Shavkat Mirziyoyev - O'zbekiston Respublikasi saylangan Prezidentining lavozimiga kirishish marosimi nutqidan.